

**TIBBIYOT XODIMLARIDA SOTSIAL-PSIXOLOGIK  
KOMPETENTLIK OMILLARINI RIVOJLANTIRISH DASTURI**

*Hikmatov Akmal Sadulloyevich*

*Buxoro davlat universiteti*

*erkin tadqiqotchisi*

*Annotatsiya:* maqolada nevrolog - shifokorlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligining o'ziga xos jihatlari hamda shifokorlar kompetensiyalari va kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari o'rganilgan.

*Kalit so'zlar:* sotsial-perseptiv kompetentlik, kompetensiya, adekvat furustratsiya, kasbiy kompetentlik, intellektuallik, konstruktiv muloqot,

**Kirish.** Ijtimoiy psixologiya fanida aynan tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligi muammosiga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi sotsial-psixologik kompetentlik metodologiyasiga dahldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlashga harakat qildik. Tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini yoritishda biz sotsial-psixologik kompetentlik bo'yicha mavjud psixologik yondashuvlarning umumiy holatini tahlil etib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, tibbiyot xodimlarida sotsial-psixologik kompetentligini shakllanishining psixologik mexanizmlarini tadqiq qilish va rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar ozchilikni tashkil qiladi. Demak, yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar natijasiga tayanib, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentliginining ilmiy adabiyotlarda yoritilishi bo'yicha quyidagi umumiy xulosalarni keltirmoqchimiz.

Tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligi muammosini tahlil qilishda, xorijda, asosan, uning fenomenologik, genetik ham regulyatsion jihatlari nuqtai nazardan yondashuvlar tadqiqi namoyon etilgan bo'lsa, Rossiya hamda boshqa MDH davlatlarida esa, sotsio-madaniy jihatlari, shaxs ijtimoiylashuvi

bilan bog'liq imkoniyatlari hamda uning kasbiy kompetentlikni rivojlantirishdagi tabiati nuqtai nazardan tadqiq qilish amaliyotini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi ilmiy tahlillar sotsial-psixologik kompetentlikni ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qarashni va uni bugungi kunda kasbiy faoliyat doirasida (ayniqsa tibbiyot xodimlari kasbiy faoliyati) yanada mukammalroq tahlil qilish uchun o'ziga xos empirik malumotlarga asoslangan ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy oydinliklar kiritish zarurligini taqozo etadi. Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri ekanligiga qaramay, tibbiyot psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya yo'nalishlarida yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmaganiga yana bir bor guvoh bo'lindi. Tibbiyot xodimlarini sotsial-psixologik kompetentligini rivojlanishi va unga ta'sir qiluvchi omillar hamda tibbiyot xodimlarining kasbiy kompetentligi nimalardan iborat bo'lishi masalalariga turlicha yondashilganligi, mazkur muammoning aniq bir ilmiy yechimi yo'qligini ko'rsatmoqda. Shulardan kelib chiqib, biz keyingi paragraflarda tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligining tuzilmasini yaratish va uni sinovdan o'tkazishni lozim deb topdik.

Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda uni bir qator psixologik jabhalar bilan bog'lagan holda o'rganishga erishildi. Sotsial-psixologik kompetentlik bilan shaxsining boshqa psixologik jabhalari o'rtasidagi o'ziga xos tafovutlarni kuzatilganligi, faoliyat jarayonida tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentlik imkoniyatlarini oshirishning psixologik chora-tadbirlarini amaliyotda qo'llash muhim ekanligini ko'rsatdi. Tibbiyot xodimlari kasbiy faoliyati jarayonida sotsial-psixologik kompetentlik imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uzluksiz davom etadigan faoliyat natijasi sifatida shakllanadi.

Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda kasbiy faoliyatining barcha bosqichlariga mos keladigan, tejamkor va samarali usulni tanlashni taqozo etadi. Shuningdek, tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik

kompetentligini rivojlanishiga xizmat qiluvchi usullarni tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyati mobaynida, psixolog yordamida va uzluksiz amalga oshirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

Tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish chora-tadbirlarini tashkil etish psixolog faoliyatining murakkab va ko'p qirrali imkoniyatlaridan sanaladi. Ushbu faoliyatning tashkiliy jihatlarini yengillashtirishda sotsial-psixologik kompetentlikni rivojlantirish dasturini nazariy jihatdan asoslanishi muhimdir.

Yuqorida bir necha bor qayd etilganidek, sotsial-psixologik kompetentlik insonning shaxslararo munosabatga samarali kirishishi va muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlash uchun zarur. Muammoning nazariy tahliliga bag'ishlangan bo'limda ham bunga alohida urg'u berilgan ediki, tibbiyot xodimlarining sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirish dasturini shakllantirishda nazariy yondashuvlarga tayanmasa bo'lmaydi (E.Torndayk, Dj.Gilford, G.Ollport, G.Ayzenk va boshqalar).

Tibbiyot xodimlari sotsial-psixologik kompetentligi va uning omillarini rivojlantirishga mo'ljallangan trening dasturimiz ikkita bosqichli dasturdan iborat bo'lib, ularni har biri bir kunlik vaqtni olishini hamda ishtirokchilardan ortiqcha vaqt talab etmasligini inobatga olib rejalashtirildi.

Rivojlantiruvchi trening dasturlarida tibbiyot xodimlarining ikki mehnat kuniga mo'ljallanganligi bois, ularda sotsial-psixologik kompetentlikni yetakchi omili bo'lmish sotsial intellekt va kasbiy faoliyatda rivojlanishiga xizmat qiluvchi sotsial-psixologik kompetentlikni o'stirish e'tiborga olindi.

Ushbu rivojlantiruvchi dasturlarni amaliyotda tatbiq etishda alohida va o'zaro izchillikda foydalanish ham nazarda tutilgan. Ikkinchi dasturdagi har xil jamoa a'zolarining ishtirokini ko'zda tutilganligi ishtirokchilarning sotsial-psixologik kompetentligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ular kutilmagan vaziyatlarga,

notanish kishilar va muhitga duch kelishlari, professional moslashuv uchun sharoitlar tanlashga yangi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyatida sotsial-psixologik kompetentligi rolini oshirishning muhim shartlaridan biri uning faoliyat samaradorligini ta'minlashga qaratilganligidir. O'tgan bobda tibbiyot xodimlarining kasbiy faoliyati bosqichlarini empirik o'rganilganda sotsial-psixologik kompetentlik omillarini turli xil darajada kamol topganligining guvohi bo'lindi.

Bu esa sotsial-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyati jarayonida ahamiyatini yanada oshirish va ta'minlash uchun maxsus yondashuvni amalga oshirishni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Бендас Т.В. Гендерная психология. СПб.: Изд-во Питер, 2006. – 431 с.
2. Бочарникова М.С. Понятие «Коммуникативная компетенция и его становление в научной среде» (Ян Ван Эк., Л.Ф.Бахман, Д. Хаймс) // Молодой учёный.-2009.-№8.-С.130-142
3. Бондаревская Е.В. Гуманистическая парадигма личностно ориентированного образования. – М.: Сургут, 2000.– 124 с.
4. Брунер Дж. Процесс обучения. – М.: Изд-во «Процесс обучение» 1962. – 782 с.
5. Буланова-Топоркова М.В. Педагогика и психология высшей школы/ Учебное пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2002. – 266 с.
6. Бурлачук Л. Ф. Психодиагностика/ Учебник. – СПб.: Питер, 2007. – 352 с.
7. Величковский Б.М. Когнитивная наука/ Основы психологии познания. М.: Смысл, Издательский центр «Академия», 2006. – 432 с.
8. Венгер А.Л. Психологическое консультирование и диагностика/ Практическое руководство. – М.: Генезис, 2001. – 160 с.